

## ROMAN-ESSEDA YOZUVCHI IJODIY KONSEPSIYASI

**Yaqubov Islomjon,***Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU**professori, filologiya fanlari doktori, O‘zbekiston***ORCID ID:** <https://orcid.org/0000-0003-4969-2848>**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18843730>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotidagi roman-esse o‘rganilgan. Unda Nodir Normatovning “Ro‘zi Choriyevning so‘nggi vasiyati” nomli asari misolida roman-essening o‘ziga xos xususiyatlari, yozuvchi ijodiy konsepsiyasi, obraz yaratish mahorati tahlil etilgan. Maqolada roma-essening bugungi adabiy jarayondagi o‘rni adibning romannavislik mahorati bilan o‘zaro mushtaraklikda yoritilgan. Muallif roman-esse haqidagi fikr-qarashlarini romandan keltirilgan ko‘plab misollar tahlili vositasida asoslagan. Ilgari surilgan fikr-mulohazalar tadqiqotchi tomonidan muxtasar holda umumlashtirilgan.

**Kalit so‘zlar:** janr, konsepsiya, milliy xarakter, poetik mahorat, adabiy an‘ana, o‘ziga xoslik, roman esse.

**Аннотация.** В данной статье исследуется жанр роман-эссе в узбекской литературе. На примере произведения Нодира Норматова «Последнее завещание Розы Чориева» анализируются специфические особенности роман-эссе, творческая концепция писателя и мастерство создания образов. В статье также освещается место роман-эссе в современном литературном процессе в тесной взаимосвязи с романистическим мастерством автора. Автор обосновывает свои взгляды на роман-эссе посредством анализа многочисленных примеров из произведения. Выдвинутые положения обобщены исследователем в сжатой форме.

**Ключевые слова:** жанр, концепция, национальный характер, поэтическое мастерство, литературная традиция, своеобразие, роман-эссе.

**Abstract.** This article examines the genre of the novel-essay in Uzbek literature. Using Nodir Normatov’s work “The Last Testament of Ro‘zi Choriyev” as an example, the study analyzes the distinctive features of the novel-essay, the writer’s creative conception, and the mastery of character creation. The article also highlights the place of the novel-essay in the contemporary literary process in close connection with the author’s novelistic skill. The author substantiates his views on the novel-essay through the analysis of numerous examples from the work. The proposed ideas are concisely summarized by the researcher.

**Keywords:** genre, conception, national character, poetic mastery, literary tradition, originality, novel-essay.

**Kirish.** Nodir Normatov “Ro‘zi Choriyevning so‘nggi vasiyati” nomli roman-essesida [3; 364] muavvir Ro‘zi Choriyev bilan hamkorlikda ko‘plab ijodiy safarlarda birga bo‘lgan kezzarida undan eshitganlari va ruhan tuygan taassurotlariga tayanib ish ko‘rgan. Asarda muallif o‘zi bevosita guvohi bo‘lgan voqealar tafsilotini aks ettirgan. Adib R.Choriyev arxividan topilgan ko‘plab qo‘lyozmalar, yozishmalar, esdalik va maktublar, turli davrlarda do‘stlari bilan tushilgan suratlar, muavvir chizgan kartinalarning fotonusxalarini sinchkovlik bilan o‘rgangan, sharhlagan. Ularning ayrim e‘tiborga molik va ibratli namunalarini rassom ijodi muxlislari va tasviriy san‘at ixlosmandlari hukmiga havola etgan. Shuning uchun romanda realistik tamoyillar yorqin namoyon bo‘lgan.

Adib asar kompozitsion to'qimasiga o'zi idrok etgan, eshitgan va kuzatganlari, tarixiy hujjat va maktublar, musavvir xotira va xayollari (ular N.Normatov tasavvurida jonlanadi, – I.Ya.), rassom yon daftarlaridagi san'at va adabiyotga munosabat ifodalangan nazariy qarashlar, ruscha tarjimai holidagi iqromomalari, R.Choriyev shaxsi va ijodiga bag'ishlangan she'r hamda maqolalarni kiritgan. Ularni munaqqid va san'atshunos sifatida sharhlagan.

Yozuvchi roman-esse uchun muloqot shaklini tanlaydi va mazmunni shundan keltirib chiqaradi. Qizig'i shundaki, bu suhbat-muloqot adabiy-badiiy matn botiniga latif bir ziyraklik bilan gizlangan. Shu boisdan, u birdaniga ko'zga tashlanmaydi. Ammo biz uni rivoya va tavsif asnosida, mutafakkirona munozara, muhokama-mulohaza onlarida aniq ilg'ay olamiz. Roman-esseda N.Normatov badiiy milliy san'atimizni adabiy-tanqidiy nigoh orqali estetik talqin etishga intilgan. Zotan, kitob bag'riga jo bo'lgan g'oyatda nozik va teran fikrlar bizni, *birinchidan*, yaqin o'tmishdan madaniy-tarixiy xulosalar chiqarishga, *ikkinchidan*, butun umrini milliy san'at rivojiga baxshida etgan bir inson taqdirini estetik qadriyatlar negizida baholashga, *uchinchidan*, ma'naviy merosni sinchkovlik bilan kuzatishga o'rgatadi.

**Adabiyotlar sharhi.** Milliy romanning paydo bo'lishi, shakllanishi va takomillashish jarayoni, uning taraqqiyotiga xos yetakchi xususiyatlar, poetik mahorat singari ko'pgina muammolar bir qator adabiyotshunoslar tomonidan o'rganilgan. Istiqlol davri o'zbek romanchiligining yetakchi xususiyatlari, taraqqiyot tamoyillari adabiy jarayon bilan bog'liq tarzda Z.Pardaeva, Sh.Doniyorova, I.Yaqubov, M.Pirnazarovalarning dissertatsion tadqiqotlarida atroflicha darajada tadqiq etilgan. Adabiyotshunos I.Yaqubov tadqiqotlarida N.Normatovning romannavislik mahorati haqida muayyan fikr-mulohazalar ilgari surilgan [12] bo'lsa-da, roman maxsus tadqiq etilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqola mavzusini yoritishda kompleks tahlil, kontekstual tahlilning sotsiologik, tarixiy-madaniy, tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik yondashuvlari, shuningdek, komparativistik, biografik va psixologik metodlardan foydalanildi.

**Natijalar.** Darhaqiqat, asl san'at durdonalari bizni milliy san'atimiz oltin fondi zahirasiga qayta-qayta murojaat qilish, ularda zamondoshlarimiz qalb qo'ri, hamisha uyg'oq ko'ngil manzaralari aks etganini ilg'ashga da'vat etadi. Bu borada N.Normatov uslubiga xos vazmin donishmandlik, xolislik, haqqoniyat va samimiyat musavvir R.Choriyev taqdiriga alohida e'tibor qaratishga chaqiradi. Kitobxonni muloqotga chorlaydi, qiziqish uyg'otadi. Unda yaratuvchanlikka havas, ijodga baxshida umr sohibi ma'naviy-ruhiy hofizasi qoshida hayrat, afsonaviy muhabbatiga xos yuksak manzillar sog'inchini uyg'otadi. Chunki, asarda rassomning ruhiy holati, ichki kechinmalari teran badiiy ifodasini topgan. Adib qahramonning bolalik xotiralari, ona yurt sog'inchini tasvirlash epizodlarida psixologik vositalardan barakali foydalangan.

Sakkiz oylik paytida onasidan, ko'p o'tmay otasidan ham ajralgan sag'ir chaqaloq Ro'zi taqdiri bizni o'tgan asrning sanitariya-maishiy ahvoli, tibbiy yordam ko'rsatish

darajasi nochor bo'lgan kunlari sari yetaklaydi. Roman-esseda rassom yon daftaridan olingan shunday parcha keltiriladi: *“Onamni eslay olmayman. U kishi men sakkiz oylik chaqaloq ekanligimda terlamaga yo'liqib, olamdan o'tgan. Ko'p o'tmay, otam ham... Buni menga to'qson yoshga kirib vafot qilgan xolam aytib bergan edi. Men tug'ilgan yillarda zamon notinch, ocharchilik bo'lgan ekan”* [3; 6].

Terlamadan eti uvishib, isitmalab yotgan, boshi va mushaklaridagi qattiq og'riq iztirobidan yuzlari kepchib, ko'zlari qizargan, darmoni qurigan onaizor alahlashlari, yetim qolishi ehtimoli tobora kuchayib borayotgan jigargo'shasi taqdirini o'ylab bezovtahol ingrashlari ko'z oldimizda jonlanadi. Shoshma-shosharlik bilan amalga oshirilgan yoppasiga kollektivlashtirish, omaviy qatag'on qilish siyosatining noxush oqibatlari, xatolik va adolatsizliklar qurboni bo'lgan begunoh bolalar taqdiri haqidagi mahzun o'ylar fikrimizni chulg'aydi, ruhiyatimizni asir etadi. Tanishganimizday, R.Choriyev ham zamona zayli tufayli ko'chada qolgan minglab yetimlardan biri, mash'um qismatning begunoh qurboni ekan.

Nodir Normatov bizni Pana qishlog'idagi zohiran ko'rimsizgina hovuz bo'yida o'sgan chilonjiydalar, yobon kengliklariga yoyilgan poda, chillak o'ynayotgan bolalar, jamalaksoch qizlar sirli gurunglari sari ergashtirib ketadi. So'ngra nigohlari olis ufqlarga boqqan, ko'ngli yuksakliklar sari talpinib, poetik tasavvurlari tavallud topa boshlagan mas'um bolakay bilan tanishtiradi: *“U esini taniganidan buyon ufqni sevar, talpinar, unda qalbini quvonchlarga to'ldiradigan allaqanday narsalar borligini tasavvur qilardi. Nainki ufqni, Ro'zi qishlog'ini ham yaxshi ko'radi. Ayniqsa, uning atrofidagi bahaybat tog'larni berilib tomosha qilar edi... Quyoshning kechki qizg'ish shu'lalari tepaliklar qo'ltig'ida o'sgan teraklar ustidan qaltirab-qaltirab ketyapti. Terakzor tagida jilg'alar ham uyg'ongan. Kakliklar, bahor oqshomini kutgan qurbaqalar atrofni sirli bir ovozga to'ldirib turibdi”* [3;5].

Biz asar ifoda go'zalligi va epik bayonchi samimiyatiga ergashib, tog'lar haybatiga xos so'nmas chiroy, cho'qqilar yuksakligiga monand maftunkor manzaralar, tepaliklar qo'ltig'ida o'sgan teraklar uchida qaltirab-titrab so'nayotgan quyoshning kechki qizg'ish nurlari, shaldirab oqayotgan tiniq soylar, kakliklar chug'uriyu qurbaqalar majlisiga oshno bo'lamiz. Sirli-sehrli ovozlarga to'la muazzam borliq bilan yuzlashamiz. Zotan, muallif so'z bilan muhtasham manzaralar chizadi. Tasvirni o'qigan kitobxonning o'sha qishloqqa mehri tovlanibgina qolmay, dilini yiroq-yiroqlardagi allanechuk noma'lum xilqatlar chorlayotganini ham his etadi. Binobarin, N.Normatov bu qutlug' mavzuga bejiz qo'l urmagan. Adib tiynatida rassomona taxayyul, ingichka kuzatuvchanlik, kindik qoni tomgan yurtning mo'jaz bo'lagi va saxovatli, tanti, salohiyatli odamlari taqdiriga bo'lgan mislsiz mehr-muhabbat mujassam. Birinchi galda, ana shu omillar unga qalam tutqazgan.

Ro'zi Chorining olis tog' ortida Boysun, Sherobod, Qumqo'rg'on, Termiz va boshqa bolalar uylarida kechgan mashaqqatli hayoti izziz ketmadi. U Zarautsoy va Ko'hitang g'orlaridagi rasmlarni ko'rdi. Bo'yoq hidini yoqtirib qoldi. Mashaqqatli yillar shamoli

ko'ngliga yomg'ir va yer hidlarini naqshladi. Qizil rang shafaq esa, hayolini asir etdi. Oqshom chog'i xiyobonda kezarkan, gulzorlar ming xil jiloda tovlanuvchi ranglar bo'lib qalbiga indi. Mo'jaz albomida Surxon bo'ylari, bozor rastalari, shoshqin ariq va kanallar, zohiran qovjiroq ko'ringan, ammo bag'rida sariq, qirmizi, qahrabo va yana allaqancha tuslarni yashirgan bargi xazonlar aks eta boshladi. Ko'hna va qadimiy Shosh bilan ilk tanishuv uni go'yo afsonaviy bog'zorlar diyoriga yetaklaganday bo'ldi. Agar, uning V.Vinokurov bilan Toshkent safarida bo'lish onlari tasviriga diqqat qilinsa, insoniy mehrga muhtoj bolakay shuurida odamu olamga shafqat nazari bilan qarash tuyg'usi teranlashib borayotgani anglashiladi.

Uning ilk ijodiy qadamlar kamar tepasida – qoyadagi qadimiy suratlar va ov manzaralarini qog'ozga muhrlash tarzida tug'ildi. Ro'zi Chori yurti yaxshi o'rganmasdan, uning chiroyiga maftun bo'lmasdan, chinakam rassom bo'lish maholligidan ibratli saboq bergan Parfenov kabi ulug' ustozlariga bo'lgan mehrini bir umr opichlab yurganiga zarracha shubha yo'q. Roman-essening urush davri bolalarining hayoti bitilgan sahifalarini mahzun kayfiyatga berilmay o'qish mahol. Jumladan, behad ochiqqan yetim bolakay noilojlik sabab do'kondan non o'g'irlashga majbur bo'lgani va undan bir burda ham yeyolmay, qaytib kelib, aybiga iqrar bo'lgani manzarasi tasvirida bo'lajak ulug' rassom tiynati aks etadi: *“Xola, noningizni o'g'irlagan edim. Ammo yeganim yo'q. Mana, oling”*, - dedi u sotuvchi ayolga. So'ngra holsizgina nonni peshtaxta ustiga qo'ydi. Bu gaplardan ayolning ko'zlariga yosh qalqdi. Uning yetimligini bildi shekilli, darhol bir burda non uzatdi: *“Urush qursin, urush”*, - dedi mahzunlik bilan [3; 8].

Darhaqiqat, ikkinchi jahon urushi yillarida bir burda non ilinjida hayotning ne-ne ko'chalarida sarson-sargardon kezgan bolalarning barchasi ham keyinchalik o'z salohiyatini to'la namoyon eta oldimikin? Ularning ruhiyati sinmagani, iste'dodi zaha yemaganiga kim kafolat bera oladi? Bunday satrlarni o'qigan kezda, novvoy xolaga qo'shilib: *“Urush qursin, urush. Tinchlikning qadriga yetmoq kerak”*, - degisi keladi odamning. Kimsasiz odamning imkonsizlikda imkon topa olgani bizni inson bardoshi, qanoati va sabri; qat'iyati va qadri haqidagi o'ylashga undaydi.

Izlagan imkon topadi. Faqat odam bolasi o'z yurtining musaffo havosi, besarhad ufqlari, tuproq hididan uzoqlashmasligi, qilayotgan amallaridan zavq tuya bilmog'i lozim. Xullas, darbadar bolakayga qo'shilib Surxonu Sherobodan boshlanuvchi uzun so'qmoq bizni qadimiy Shosh, so'ngra Sankt-Petrburg, Marokko, Jazoir, Istambul, Qibriz, Shvesiya, Belgiya, Sibir va Afg'onistondan Arktikagacha; Olmoniyadan Turkiyagacha eltadi.

Musavvirning ilk kartinalarida manzaralar xayol va xotira asosidagi entikish bilan uyg'unlashib, yurt sog'inchi va ko'ngildagi anduhlar bilan birlashib ketadi. Shu bois, ular bir qadar dardchil ko'rinadi. Masalan, rassom diplom ishi sifatida taqdim etgan “Buxoro bozorida” asarida Sharqona to'kin-sochinlikni tasvirilaydi. Chunki, to'kinlik bolaligi yetimlik, ochlik, darbadarlikda kechgan kishining muqaddas orzusi edi.

Ko'rinadiki, yosh musavvir impressionist rassomlar: Renuar, Matiss, Sezann, Pol Gogen, Van Gog ijodiga moyillik, ular ijodidan nusxa ko'chirishdan sekin-asta o'z qalbining suvratini chizish, insoniy tug'yonlarini namoyon etishga o'ta boshlagan. Hayotga yaqinlashish rassomni afsonaviy syujetlar va qadimgi ajdodlarimiz urf-odatlarini asosida Afrosiyob, Panjikent, Varaxsha, Bolaliktepa devorlariga ishlangan nodir suratlar, Kamoliddin Behzod, Mir Said Ali miniatyuralaridagi yorqin va iliq ranglar va nurlar jilvasi sari yetaklagan. Madaniy meroslar uni maftun etgan. Shuning uchun ham bir o'rinda: *"Ularga tiz cho'kib, sig'inging keladi"*, -deydi rassom.

Kelajakda qaysi xalqning an'analarini davom qildirish kerakligi bilan bog'liq ruhiy iztiroblar musavvirning "O'ylar" asarida aks etadi. Jumladan, kartinada: dastgoh yonida o'ychan o'tirgan yosh rassom atrofida Afrosiyob devoriy suratlari, Rus ikonasi, Behzod qilqalamiga mansub "Shayboniyxon" portreti, xalq amaliy san'atidan namunalar ochib qo'yilgan. Suratni tomosha qilar ekanmiz, fikr-o'yimizda: bularning qaysi biri musavvir qalbiga yaqin? - degan savol charx uradi.

O'zi tahsil olgan Yevropa maktabi ifoda usullaridan birdaniga voz kechib, milliy an'analar tomon yuz burish R.Choriyev uchun oson kechmagan. Bizningcha, xarakterga milliy ruh bag'ishlab turuvchi jihatlar: qadrdon yurtning madaniy-ma'naviy qadriyatlarini ulug'lash, o'zi tug'ilib voyaga yetgan diyorni ardoqlash, uning tabiati, daryolari, ko'llari, tog'lari, musaffo osmoni bilan faxrlanish va qadrdon do'stlar sog'inchidir.

Roman-essening "Etyud", "Kartina", "Insonning ikkinchi umri", "Peyzaj" kabi fasllarida san'atning ayrim janrlari haqidagi ibratli amaliy tajribalar, aytish mumkinki, ilmiy-nazariy qarashlar jamlangan. Jumladan, "Etyud" faslida musavvir yon daftaridan keltirilgan bitikda san'at asarida kashfiyotning yuzaga kelishini ikki bosqichli jarayon ekani ta'kidlangan: *"Kashfiyot hech qachon birdan qilinmaydi. Menimcha, u avvaliga kichik, keyin katta-katta sifat o'zgarishlaridan tashkil topadi. Gap faqat shakl jihatdan yangilik kiritishda emas, fikrlash tarzi ham muhim"* [3; 33].

Musavvirning fikricha, chinakam kashfiyot yaratish uchun birinchi navbatda, yorqin iste'dod lozim. Chunki katta iste'dod sohiblari muttasil o'zgarishlar og'ushidagi inson, san'at, adabiyot, madaniyat, keng ma'noda, borliqda sodir bo'layotgan yangiliklarni nozik hissiy idrok eta olishadi. Ular ko'ngil talpinishlariga ergashib, dil amri bilan kashf etgan yangilik ijtimoiy muhitda amal qilayotgan estetik qarashlardan o'zish bo'lib, o'z davri tomonidan ham e'tirof etilsa, katta kashfiyot yuzaga chiqadi.

Roman-esse muallifi musavvir bilan muloqot jarayonida R.Choriyevga ona zaminning olma atalmish ne'mati hamda inson tasviri orqali Odam Ato bolalari va daraxtlar o'rtasidagi mushtaraklikni ifoda etganini e'tirof qildirishga erishadi. Natijada, roman-esse kompozitsiyasi N.Normatov estetik talqinlari bilan bir qatorda, rassomning san'at asari yaratish tajribalari va san'at nazariyasiga oid iqrori, xotirayu ruhiy tug'yonlari hisobiga yanada boyiydi. Asarning konseptuallik darajasi oshadi. Muloqot jarayonida tasavvurdagi o'quvchi ham ko'zda tutiladi. R.Choriyevning shaxs sifatida shakllanish yo'li

va san'atkor sifatidagi "men"ni inkishof etayotgan yozuvchi nuqtai nazari birinchi planga chiqib, bosh qahramon darajasiga yuksala borgan [4; 147].

N.Normatov ramzlar ma'nosini rassomning hayot yo'li va ijodiy merosi kontekstida anglashga intilgan. Zotan, bu ramzlar ma'nosi ikkinchi jahon urushi ta'mini totgan musavvir R.Choriyevning umrbayoni, orzu-intilishlari, iztirob-armonlari, ayni kartina chizilgan paytdagi ruhiy holatidan xabardor kitobxon uchun yanada kengayadi. Demak, yozuvchi shartli chizgilarni markaziy obrazning ichki va tashqi qiyofasini uyg'unlashtiruvchi vosita sifatida anglagan. Rangtasvir orqali bir vaqtning o'zida ham obrazga, ham o'ziga, ham musavvirning ruhiyatiga nazar solishga intilgan. Roman-esse doirasida poetik fikrlash rakursining bu tarzda kengayishi estetik nigoh yaxlitligini yuzaga chiqargan. N.Normatov adib va san'atshunos sifatida ish tutganki, u R.Choriyev kartinalarining bag'ridagi simfoniya ohanglarini ko'ngil qulog'i bilan tinglay olgan. Musavvir umumlashma obrazlarida millat qalbi muhrlangani, asarda aniqlik, lo'ndalik va ixchamlik uyg'unlashganini ilg'ashga muvaffaq bo'lgan.

Rassom manzara chizish asnosida, o'zining lahzalik taassurotlari negizida narsalarning ko'lami, o'zaro joylashish tartibi, uzlukli yoki uzluksizligini ifoda etdi. Teran fikr-o'y, xayoliy kengliklar sarhadidagi uchqur tasavvur, ko'p yillik mashaqqatli izlanish va ayniqsa, Ro'zi Choriyev ko'ngil mayli mahsuli bo'lgan: "Amirlikning yemirilishi", "Birinchilar", "Anor pishganda", "So'zana", "Surxondaryo musiqasi", "Sayroblik chol" kabi asarlar o'z hayotiyliigi jihatidan tomoshabinni hamon hayratga soladi. Zotan, har bir asarning tabiati turlicha bo'lsa-da, uning qimmatini muallif mahoratining darajasi bilan belgilanadi. Bu fikr Ro'zi Choriyevning inson va musavvir sifatidagi umrbayonini davr intilishlari, musavvirning xayolot olami, fikr qamrovi, badiiy ijod psixologiyasi va real xayot bilan uzviylikda idrok etib, poetik ifodaga ko'chirgan Nodir Normatovga ham to'la daxldordir.

**Xulosa.** Yuqorida bildirilgan fikrlarni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

*Birinchidan*, yozuvchi motivirovkasi tufayli roman-essening janriy tabiatiga xos eng muhim jihat yuzaga chiqqan. Bu fazilat muhokamaga asos beruvchi o'zgaruvchan (propozitsional, – I.Ya) hukmlarni timsollar mantig'i asosida sintezlashtirib yangi poetik hukm-xulosalar chiqarishdir.

*Ikkinchidan*, hayotiy dalillarni mantiqiy tahlil qilish adibga R.Choriyevning dunyoqarashi shakllanish tarixi, san'atkor shaxs sifatida ma'nan ulg'ayish jarayonlari, irodasini quvvatlantirish, ko'ngil hollariga ergashish, intellektual imkoniyatlarini yuksaltirish omillarini anglash va his qilish imkonini bergan.

*Uchinchidan*, yozuvchi poetik tafakkuri zohiran o'zaro aloqasizday tuyulgan turfa hayotiy hodisa, ichki kechinma va harakatlar o'rtasida muayyan tadrijiy izchillik, mantiqiy bog'lanishlar mavjudligini nozik ilg'agan. N.Normatov sezgi, idrok, tasavvur hamda taxayyul kengliklari tasviridan hodisaning botiniy mazmunini kuzatib, izchil fikriy umumlashmalar hosil qila bilgan.

*To'rtinchidan*, adib asaridagi asosiy xarakterlarni badiiy tadqiq etib, ularni yaxlit badiiy konsepsiya atrofiga jipslashtira olgani xayotni ko'lamli va teran badiiy idrok etish imkoniyatini yuzaga chiqargan.

*Beshinchidan*, adib musavvirning teran kechinmalarini o'z qalbi prizmasidan o'tkazib tasvirlagan. R.Choriyev ishlagan asarlardagi ko'pma'nolilik, emotsional to'yinganlik sabablari rassom shaxsiyati va tabiatiga bog'liqlikda ko'rsatib berilgan. Natijada N.Normatov o'zi uchun aziz bo'lgan R.Choriyevning murakkab hayot yo'li va ijodiy merosini keng kitobxonlar ma'naviy mulkiga aylantirishga erishgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
2. Nodir Normatov hayoti va ijodi zamondoshlari nigohida. –T.: San'at, 2017.
3. Normatov N. Ro'zi Choriyevning so'nggi vasiyati. – T.: San'at, 2008.
4. Yakubov I. Mustaqillik davri o'zbek romanlari poetikasi. Filol. fan. d-ri ... diss. – Toshkent, 1998
5. Xajieva F.M. Biografik roman janri xususiyatlari. (Irving Stoun va o'zbek yozuvchilari asarlari misolida) – Filol. fan. nomz... diss. –Toshkent, 2012.
6. Quronov D., Mamajonov Z., Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: Akademnashr, 2010.
7. Matyakubova, T., & Yakubov, I. Laboratory works of Gafur Gulam: poetic image and imagery. Journal of critical reviews. 2020, № 7, pp. 28-37.
8. Matyakubova T.R. Poetic character and its specific features // Theoretical &Applied Science. – Marseille, 2015. pp. 40-43
9. Islomjon Yakubov Transformation of aesthetic views and modern uzbek novel. Theoretical & Applied Science. 2017. №12. 120-125
10. Yakubov I/ Socio-Genetic Factors Of Changes In The Character Of The Main Character. Texas Journal of Medical Science. 2024. Vol 29. Pp. 123-125
11. Yoqubov I. Erkin A'zamning "Zabarjad" kinoqissasida qahramon botinidagi evrilishlar tasviri // Uzbekistan: yozuk i kultura . 2024. № 2. – B. 66-77
12. Yokubova S.I. Jadid she'riyatida peyzaj bilan bog'liq poetik obrazlar tasviri // O'zbekiston:til va madaniyat. – Toshkent, 2022, № 3. – B. 42-54.
13. Yokubova S.I. Jadid she'riyatida ramzlar: semiotik va germeneytik talqin // O'zbekiston: til va madaniyat. – Toshkent, 2023, № 3. – B. 79-90.